IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: LM47713155

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (998) 55-520-08-08, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2025-yil 26-dekabr 02/12-4/1-11895-son

Oliy ta’lim tashkilotlari
rektorlari (direktorlari)ga

nusxasi: **YUNESKO ishlari bo‘yicha**
O‘zbekiston Respublikasi
Milliy komissiyasiga
(ma’lumot uchun)

2025-yil 23-dekabrdagi 391/25-sonli xatga muvofiq

YUNESKO tashkiloti tomonidan tabiiy fanlar sohasidagi YUNESKO/Ekvatorial Gvineya xalqaro mukofotiga 2026-yil uchun tanlovi e’lon qilingan.

Mazkur mukofotning asosiy maqsadi YUNESKO tashkilotiga a’zo-davlatlarda alohida shaxslar, institutlar va nodavlat tashkilotlar tomonidan inson hayotini yaxshilanishiga salmoqli hissa qo‘shgan ilmiy tadqiqot loyihalari va faoliyatlarini mukofotlashdan iborat.

YUNESKO/Ekvatorial Gvineya xalqaro mukofoti 300,000 AQSH dollariga teng bo‘lib, tanlovda muvaffaqiyatli ishtirok etgan uch nafar nomzod o‘rtasida teng taqsimlanadi hamda diplom va esdalik sovg‘asi bilan taqdirlanadi. Mukofotga tavsiya etilgan nomzodlar xalqaro hay’at bahosi va tavsiyasi asosida YUNESKO Bosh direktori tomonidan tanlab olinadi.

Tanlovda qatnashish uchun nomzodlar www.unesco.org/egip/account-reguest havolasi orqali onlayn tarzda ro‘yxatdan o‘tishi va quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- ariza varaqasi;

- nomzodning mukofot maqsadlariga qo‘shgan hissasi bo‘yicha axborot;

- nomzodning ilmiy-amaliy faoliyati bo‘yicha qisqacha ma’lumot;

- nomzodning muhim 10 ta ilmiy nashrining ro‘yxati.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tanlovda qatnashishi mumkin bo‘lgan nomzodlar bo‘yicha ma’lumotlarni **2026-yilning 25-fevral kuniga qadar** vazirlikning Xalqaro hamkorlik va reytinglar boshqarmasiga yuborishingizni so‘raymiz (e-mail: sh.eshqobilova@edu.uz).

Vazirning birinchi
o‘rinbosari **S. Radjabov**

Ijrochi: Sh. Eshqobilova
Telefon: (55) 520 08 08 (207)